


QURILISH ISHLARI

2019 yil yanvar – sentabr

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahrida jami 11 294,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132 %ni tashkil etdi.


Toshkent shahrida qurilish ishlari hajmi

(mlrd.so'm)




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 874 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 48,7 % ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 3,2 % punktga ko'paygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 59 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,2 %ni tashkil etgan holda 6 666,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'payib, 15,5 %ni tashkil etdi va 1 753,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 130,4 %ni tashkil etgani kuzatildi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **73,3 %**i yoki **8 278,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2 612** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **90,9 %** tashkil etdi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **4 358,9** mlrd. so'm, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **65,4 %** yangi qurilish ishlari bo'yicha ishlar bajarildi.




Norasmiy sektor bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 307,4** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **74,5 %** tashkil etdi.



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)




-  *Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari*
-  *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 17 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga ko`paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 2,5 % punktga kamayib, 57,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko`payib, 25,1 %ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari


(jamiga nisbatan % da)



Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 67 % ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 6,5 % punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 33 % ni (6,5 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi va 11,3 %ni tashkil etdi.

Qolgan 88,7 %i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

Mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi


(jamiga nisbatan %da)



Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 620 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,5 foizni tashkil qildi, yaʼni 2018 yil yanvar-sentabr holatiga nisbatan 1,8 % punktga koʻpaydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 10 674,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,5 foizni tashkil qildi.


Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Qurilish ishlarining tumanlar kesimida eng yuqori o`sinh sur`ati Chilonzor tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`sinh sur`ati 136,9 %ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari


(jamiga nisbatan %da)



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Bektemir (tumandagi qurilish hajmining 55 %ini tashkil etgan) va Mirobod (mos ravishda, 41,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Uchtepa tumanida kuzatildi - 0,9 %. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – tumandagi jami qurilish ishlarining 99,1 % tashkil etdi.



Toshkent shahrining yuqori o`shish sur`atga – 132 % ko`rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sergeli” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- Ko`ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi “Navruz” istirohat bog`ining qurilishi;

- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo`limi

Nashr uchun mas`ul: **E.G`ulomov**
Aloqa telefoni: **(0371) 230-88-18**